




**TOSHKENT VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR
DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2025- yil 1- sentyabr holatiga ko'ra

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2025- yil 1- sentyabr holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 44 999 tani tashkil etdi, shundan 38 746 tasi yoki 86,1 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2024- yilning shu davriga nisbatan korxona va tashkilotlar soni o'sishi 107,7 % ni, jumladan kichik biznes va mikrofirmalarda – 108,7 % ni tashkil etdi.





Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- sentyabr holatiga)

Yillar	Korxonavatashkilotlar	<i>shundan:</i>	
		tadbirkorlik subyektlari	kichikbiznes subyektlari
2025	44 499	39 122	38 746
2024	41 775	35 991	35 636
2023	44 538	38 609	38 276
2022	53 562	47 676	47 336
2021	50 532	44 775	44 455

Hududlar bo'yicha eng ko'p korxona va tashkilotlar Zangiota (*jami faoliyat ko'rsatayotganlarning 11,5 foizi*), Qibray (8,7 %), Toshkent (7,0 %), Parkent (6,1 %) tumanlari va Chirchiq shahar (6,6 %) hissasiga to'g'ri keldi.


Kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Zangiota (12,3 %), Toshkent (7,3 %), Qibray (8,9 %) Parkent (6,3 %) tumanlariga to'g'ri keldi

Hududlar	Korxonavatas hkilotlar	<i>shundan:</i>	
		tadbirkorlik subyektlari	kichikbiznes subyektlari
Zangiota t.	5 168	4 807	4 770
Qibray t.	3 906	3 478	3 441
Toshkent t.	3 144	2 843	2 826
Chirchiq sh.	2 990	2 625	2 586
Parkent t.	2 741	2 436	2 423
Bo'stonliq t.	2 488	2 124	2 099
Angren sh.	2 401	2 052	2 019
Yuqori Chirchiq t.	2 243	1 967	1 950
Yangiyo'l t.	2 130	1 820	1 802
O'rta Chirchiq t.	1 966	1 709	1 694
Olmaliq sh.	1 874	1 611	1 587
Yangiyo'l sh.	1 520	1 339	1 333
Bekobod sh.	1 458	1 243	1 232
Quyi Chirchiq t.	1 369	1 152	1 143
Bekobod t.	1 364	1 126	1 121
Ohangaron t.	1 308	1 079	1 062
Chinoz t.	1 274	1 050	1 046
Bo'ka t.	1 251	1 014	1 007
Oqqo'rg'on t.	1 155	957	952
Nurafshon sh.	1 127	884	870
Piskent t.	1 099	897	888
Ohangaron sh.	1 023	909	895



Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning eng ko'p qismi Savdo tarmog'ida qolmoqda, uning ulushi 2025- yil 1- sentyabr holatiga 33,4 foizni tashkil etdi.




Ikkinchi o'rinda, Boshqa turlar 23,0 foizni, uchinchi o'rinda Sanoat 14,9 foizni tashkil qildi. Ushbu uch turdagi iqtisodiy faoliyat turlari faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 71,4 foizini tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari	Korxonalar soni	shundan:	
		tadbirkorlik subyektlari	kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3 969	3 923	3 894
Sanoat	6 716	6 703	6 566
Qurilish	2 683	2 666	2 645
Savdo	15 050	15 049	14 986
Tashish va saqlash	1 414	1 411	1 389
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3 199	3 186	3 170
Axborot va aloqa	710	667	661
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	901	760	743
Boshqa turlar	10 357	4 757	4 692

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar (1- sentyabr holatiga)

2025- yil 1- sentyabr holatiga ko'ra, 39 122 ta faol tijorat korxonalaridan 32 100 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlari bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi.



Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni (1- sentyabr holatiga)


Tashkiliy-huquqiy shakli	Tadbirkorlik subyektlar soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatani ulushi (% da)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	32 100	82,1
Xususiy korxonalar	3 381	8,6
Oilaviy korxonalar	3 397	8,7
Aksiyadorlik jamiyati	46	0,1
Boshqalar	198	0,5

Shundan kelib chiqib, MCHJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(1- sentyabr holatiga birlikda)

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 2 132 ta korxonalardan 465 tasi qo'shma korxonalar va 1 667 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.





***Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ma'lumotlar***

2025- yilning 1- sentyabr holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, 2024- yilning mos davriga nisbatan 491 taga oshgan. Bu asosan, savdo sohasidagi korxonalar sonining 567 tadan 801 taga (o'sish 234 taga), axborot va aloqa sohasida 44 tadan 93 taga (o'sish 49 taga) va qurilish sohasida 72 tadan 117 taga (o'sish 45 taga) ko'payishi hisobiga yetdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari	Jami:	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Jami:	2 132	465	1 667
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	85	34	51
Sanoat	775	240	535
Qurilish	117	23	94
Savdo	801	90	711
Tashishvasaqlash	32	7	25
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	40	8	32
Axborotvaaloqa	93	3	90
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	10	7	3
Boshqaturlar	179	53	126

***Ayrim davlatlar kesimida foliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari
ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar (1- sentyabr holatiga)***

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 890 ta korxona bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 43,0 foizini tashkil etdi. O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (9,6 %), Turkiya (10,3 %), Qozog'iston (4,1 %) va Janubiy Koreya (3,2 %) ham alohida o'rin egallaydi.

Davlatlar	Jami:	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Jami:	2 132	465	1667
Xitoy Xalq Respublikasi	916	51	865
Turkiya Respublikasi	220	20	200



Rossiya Federatsiyasi	201	34	167
Qozog'iston Respublikasi	87	15	72
Janubiy Koreya Respublikasi	66	13	53
Afg'oniston	34	1	33
Tojikiston Respublikasi	32	1	31
Birlashgan Arab Amirligi	24	8	16
Hindiston Respublikasi	20	4	16
Singapur Respublikasi	18	6	12
Amerika Qo'shma Shtatlari	17	4	13
Qirg'iz Respublikasi	15	3	12
Ozarbayjon Respublikasi	14	1	13
Belorussiya Respublikasi	14	2	12
Gonkong, Xitoy Ma'muriyatining Ixtisoslashgan Hududi	14	3	11
Boshqa davlatlar	440	299	141

IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28- sentyabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539- son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri—real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025- yil 1- sentyabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Tayyorlash uchun mas'ul:
Raqamlashtirish va statistik
registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:
I. Boltayev
71 203-45-00 (4560)

Maznil:
100198, Toshkentv.,
Toshkent yo'li ko'chasi, 90-uy